

BUDDAVIYLIK DINI: O'RTA OSIYOGA TASIRI

Hamdamov Bahromjon

Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti

Namangan filiali «Tarix» yo'nalishi 1 – bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17948245>

ANNOTATSIYA. Mazkur maqolada Buddaviylik dinining kelib chiqishi, asosiy g'oyalari, yo'nalishlari va dunyo tamadduniga ko'rsatgan ta'siri yoritiladi. Unda Siddharta Gautama — Budda ta'limoti, uning asosiy aqidalari, to'rt oliy haqiqat, sakkiz pog'onali haqiqat yo'li, shuningdek buddaviylikning Markaziy, Sharqiy va Janubi-Sharqiy Osiyoda tarqalish jarayoni tahlil qilinadi. Maqola buddaviylikning inson ma'naviyati va madaniyatiga qo'shgan hissasini ilmiy asosda ochib beradi.

KALIT SO'ZLAR. Buddaviylik, Siddharta Gautama, Budda ta'limoti, To'rt oliy haqiqat, Sakkiz pog'onali yo'l, Nirvana, Hinayana, Mahayana, Vajrayana, Osiyo diniy-falsafiy ta'limoti.

АННОТАЦИЯ. В статье рассматриваются истоки, основные идеи, течения и влияние буддизма на мировую цивилизацию. Анализируются учение Сиддхартхи Гаутамы – Будды, его основные убеждения, Четыре благородные истины, Восьмеричный путь, а также процесс распространения буддизма в Центральной, Восточной и Юго-Восточной Азии. В статье на научной основе раскрывается вклад буддизма в духовность и культуру человечества.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА. Буддизм, Сиддхартха Гаутама, учение Будды, Четыре благородные истины, Восьмеричный путь, Нирвана, Хинаяна, Махаяна, Ваджраяна, азиатские религиозно-философские учения.

ANNOTATION. This article examines the origins, main ideas, trends and influence of Buddhism on world civilization. It analyzes the teachings of Siddhartha Gautama - the Buddha, his main beliefs, the Four Noble Truths, the Eightfold Path, as well as the process of the spread of Buddhism in Central, East and Southeast Asia. The article reveals the contribution of Buddhism to human spirituality and culture on a scientific basis.

KEYWORDS. Buddhism, Siddhartha Gautama, Buddha's teachings, Four Noble Truths, Eightfold Path, Nirvana, Hinayana, Mahayana, Vajrayana, Asian religious and philosophical teachings.

KIRISH. Buddaviylik jahondagi eng qadimgi dinlardan biri bo'lib, miloddan avvalgi VI–V asrlarda Hindistonning shimoliy hududlarida shakllangan. Uning asoschisi sifatida Siddharta Gautama — Budda tan olinadi. Buddaviylik nafaqat diniy, balki falsafiy, axloqiy va ma'naviy ta'limot sifatida ham shakllanib, tarix davomida Osiyoning ko'plab mamlakatlarida keng ommalashgan. Buddaviylikning asosiy oqimlari — Hinayana (Theravada), Mahayana va Vajrayana bo'lib, ular o'zining dunyoqarashi, amaliyoti va ma'naviy yo'liga ko'ra farqlanadi. Dinning markazida insonning ma'naviy poklanishi, azob-uqubatlardan qutulishi va Nirvanaga erishish g'oyasi turadi. Buddaviylik milliy madaniyat, san'at, me'morchilik va falsafaga chuqur ta'sir ko'rsatgan bo'lib, bugungi kunda dunyoning turli mintaqalarida millionlab izdoshlarga ega. Ushbu maqolada buddaviylikning shakllanish jarayoni, uning asosiy konsepsiyalari, tarqalish geografiyasi hamda insoniyat tamadduniga qo'shgan hissassi ilmiy manbalar asosida yoritiladi.[1]

ASOSIY QISM. Buddizm tarixi tadqiqotchilari mavjud manbalar asosida bu oqim asoschisi real tarixiy shaxs ekanligini ta'kidlaydilar. Bu ta'limot to'g'risida xabar beruvchi adabiyotlarda u Siddxartxa, Gautama (Gotama), Shakyamuni, Budda, Tadxagata, Djina, Bxagavan kabi ismlar bilan zikr etiladi. Bu ismlar ma'nolari quyidagicha: Siddxartxa — shaxsiy ism, Gautama — urug' nomi, Shakyamuni — «Shakya kabilasidan chiqqan donishmand», Budda — «nurlangan», Tadxagata — «shunday qilib, shunday ketgan», Djina — «g'olib», Bxagavan — «tantana kiluvchi». Ular ichida eng mashxuri «Budda» bo'lib, shundan ushbu dinga buddizm nomi berilgan. Bizgacha Buddaning bir necha biografiyalari yetib kelgan: «Maxavostu» milodning II asrida yozilgan, «Lalitavistara» milodning II—III asrlarida yuzaga kelgan, «Buddxacharita» buddist faylasuflardan biri Ashvaxosha tomonidan milodning I-II asrlarida yaratilgan, «Nidanakatxa» — milodning I asrida yozilgan va «Abnixishkramansutra». Mazkur biografiyalarda Buddaning qaysi yillarda yashaganligi turlicha berilgan. Ularda mil. avv. IX — III asrlar oralig'idagi har xil muddatlar ko'rsatiladi. Rasmiy xisobga ko'ra, Butama-Budda mil. avv. 623 yilda tug'ilib, 544 yilda vafot etgan. Birok, ko'pchilik tadqiqotchilar uning tavalludi mil. avv. 564 yilda, vafoti esa 483 yilda deb xisoblaydilar. Ba'zan 560 va 480 deb yaxlit sonlar bilan ko'rsatadilar.[1]

Aytish joizki, yukorida zikr kilingan biografiyalarda Buddaning haqiqiy xayoti bilan uning haqidagi afsonalar o'zaro qorishib ketgan. Siddxartxa Shakya kabilasining podshoxdaridan biri Shuddxodananing ug'li edi. Uning saroyi Xiimolay tog'lari etagida Kapilavasti degan shaharda bo'lgan (hozirgi Nepal xududida). Onasi — malika Mayya. Podshoh ug'lini orzu-xavaslar og'ushida tarbiyalab, uni xech bir kamchiliksiz katta kiladi. Siddxartxa ulg'ayib qo'shni xukmdorlardan birining kizi Yashadxaraga uylanadi va o'g'il ko'rib, unga Raxula deb ism qo'yadi. Hech bir kiyinchilik va kamchilik kurmay o'sgan bola Siddxartxa bir kuni ittifoko bir kekxa chol, bir bemor xamda og'ir mashaqqat tortayotgan rohibni uchratadi, bir kishining esa vafotiga guvoh bo'ladi. Bundan qattiq ta'sirlangan shahzoda insoniyatni kiyinchilik va azobdan qutqarish yullarini izlash uchun saroyini tashlab ketadi. Bu vaqtda u 30 yoshda edi. U beshta rohib bilan kishlokma-qishloq kezib yuradi. Shu asnoda Siddxartxa bir narsaga amin bo'ldi: bu yul uni o'z oldiga kuygan maksad, ya'ni insoniyatni azob-uqubatdan qutkarish sari olib bormaydi va u rohiblar jamoasidan ajraladi. Birmuncha vaqt changalzor o'rmonlarda kezib xorib charchagach, bir daraxtning tagida dam olish uchun o'tiradi va o'zicha, to haqiqatni topmaguncha shu yerdan turmaslikka qaror qiladi. Bu o'tirishning 49 kuni uning qalbidan «Sen haqiqatni topding» degan sado keladi. Shu paytda uning ko'z oldida butun borliq namoyon bo'ladi. U xamma joyda shoshilish, qayoqqadir intilishni ko'radi: xech bir joyda osudalik yo'q edi. Xayot nihoyasiz uzoqlikni ko'zlab o'tib ketayotgan edi. Inson aqli yetmas bir kuch Trishna — yashash, mavjud bo'lish umidi barchaning tinchini buzar, xalok qilar va yana qayta yaratar edi. Mana endi Budda kimga qarshi kurashish kerakligini angladi. Shu ondan u Budda-nurlangan deb ataldi. U tagida o'tirgan daraxt esa-nurlangan daraxt (botxa) deb atala boshladi. Budda o'zining birinchi da'vatini Varanasi yaqinidagi Rishipatana bog'ida o'zining besh rohib do'stlariga kildi va ular Buddaning birinchi shogirdlari bo'ldilar.[2]

Buddizm — dunyodagi eng yirik dinlar ichida kadimiylaridan biri hisoblanib, mil. av. VI — V asrlarda Xindistonda vujudga kelgan. Bu dinga e'tikod kiluvchilar, asosan Janubiy, Janubi-Sharkiy va Sharkiy Osiyo mamlakatlari: Shri-Lanka, Hindiston, Nepal, Butan, Xitoy, Singapur, Malayziya, Indoneziya, Mongoliya, Koreya, Vetnam, Yaponiya, Kambodja, Birma, Tailand,

Laosda va qisman Yevropa va Amerika kit'alarida, Rossiya Federatsiyasining Tuva, Buryatiya, Kalmikston respublikalarida istikomat kiladilar. Xozirgi kunda e'tikod kiluvchilar soni jihatidan buddizm xristianlik, islom va xinduizmdan so'ng to'rtinchi o'rinni egallaydi. Buddistlarning soni taxminan 700 mln. atrofida bo'lib, ulardan 1 mln. ga yaqini rohiblardir! Buddizm bundan 2500 yildan avvalrok Xindistonda diniy-falsafiy ta'limot sifatida vujudga kelib, unda ko'plab diniy manbalar va diniy yunalishlar mavjud.[3]

Buddizm — dunyodagi eng yirik dinlar ichida kadimiylaridan biri hisoblanib, mil. av. VI — V asrlarda Xindistonda vujudga kelgan. Bu dinga e'tikod kiluvchilar, asosan Janubiy, Janubi-Sharkiy va Sharkiy Osiyo mamlakatlari: Shri-Lanka, Hindiston, Nepal, Butan, Xitoy, Singapur, Malayziya, Indoneziya, Mongoliya, Koreya, Vetnam, Yaponiya, Kambodja, Birma, Tailand, Laosda va qisman Yevropa va Amerika kit'alarida, Rossiya Federatsiyasining Tuva, Buryatiya, Kalmikston respublikalarida istikomat kiladilar. Xozirgi kunda e'tikod kiluvchilar soni jihatidan buddizm xristianlik, islom va xinduizmdan so'ng to'rtinchi o'rinni egallaydi. Buddistlarning soni taxminan 700 mln. atrofida bo'lib, ulardan 1 mln. ga yaqini rohiblardir! Buddizm bundan 2500 yildan avvalrok Xindistonda diniy-falsafiy ta'limot sifatida vujudga kelib, unda ko'plab diniy manbalar va diniy yo'nalishlar mavjud.[4]

Eski Termizning shimoliy – sharqiy qismida joylashgan. Dastlab 1926 – 1928 – yillarda Moskvadagi Sharq xalqlari madaniyati davlat muzeyi ekspeditsiyasi tomonidan o'rganildi. 1937 yilda M.Ye. Masson va Ye.G. Pchelina tomonidan tekshirish ishlari olib borildi. 1960 yillarda arxeolog B.Ya.Staviskiy qazish ishlarini olib borgan. Hozirda O'zbekiston – Yaponiya qo'shma arxeologik ekspeditsiyasi ish olib bormoqda. Umumiy maydoni 8 ga. dan ziyod. Qoratepadan topilgan bag'ishlov bitiklari bo'lgan sopollarda Qoratepadagi ayrim majmualar Kxadevakavixara – monastiri, Vxara Gulavxara vxad – Gulavxara o'g'li (Gondafar) vixarasi, Okvixara deb nomlangan. Qoratepa bitiklarida roxilardan Buddashir, Buddxamitra, Jivananda ismlari eslatilib o'tilgan. Boy erkak va ayol homiylar qiyofasi rasmlarda hamda haykallarda saqlanib qolgan. Qoratepadan ko'plab budda haykallari topilgan. Topilmalar ichida 70 dan ortiq sopol idish siniqlariga xindcha bitilgan yozuvlar (kxaroshti va braxma yozuvlari) va devorlarga chizilgan kushon – Baqtriya hamda fors – paxlaviy yozuvlar xarakterlidir. Aynan Qoratepa va Fayoztepa ibodatxonalarida shimoliy Baqtriyaning ko'pchilik shahar va qishloqlar aholisi kelib sajda qilishgan. Ibodathonalarning birida Buddaning loydan ishlangan katta haykali va stupaning tag qismi nilufar gulining yaproqlari bilan bezatilgan. Qoratepadan topilgan stupalar buddizmga hos inshoot bo'lib, u budda dini tarqalgan barcha mamlakatlarda uchraydi. Bunday stupalar asosan bir hil usulda tayorlangan. Stupalarning asosi to'rtburchak yoki shunga yaqin bo'lib, bir necha metr ga yetgan. Ctupa usti gumbazsimon qilib ishlangan va unga yog'ochdan yoki toshdan yasalgan bir nechta soyabon bo'lgan. Bunday soyabon buddaviylarda chatra deb atalgan. Buddaviylarning hisoblashicha, chatra muqaddas daraxt ramzi bo'lib mazkur daraxt soyasida Buddha o'z diniy nazariyalarini ishlab chiqqan ekan. Qoratepa ibodatxonalarining devorlarida ham diniy mazmundagi rasmlar aks ettirilgan bo'lib, hususan bu yerda Buddaning tasviri ham bo'lgan.[5]

Eski Termizga Kushonlar podsholigi hukmronligi davrida kirib kelgan. Milodiy I asr oxirlarida-Xitoyga undan so'ng IV asrda Koreya, VI acda Yaponiya, VII asrda Tibet, XIII-XVI asrlarda Mongoliya, XVII-XVIII asrlarda Buryatiya va Tuva, XIX-XX asrlarda esa Amerika va Yevropa kit'alariga kirib borgan. Sharqiy Osiyo davlatlariga tarqalishida Eski Termizning

alohida o'ri bor. Buddizm ta'limoti bir qator kitoblar shakliga keltirilgan to'plamlarda bayon kilingan. Ulardan eng asosiysi Tripitaka (yoki Tipitaka) — «uch savat» ma'nosini anglatadi. U uch kismdan iborat bo'lganligi uchun shunday nom bilan atalgan. Bu manbaning kulyozma nusxasi Shri Lankada saklanib kolgan. U milodning boshlarida kitob shakliga keltirilgan. Ular Budda targibotining hakikiy bayoni hisoblangan sutra matnlari Sutra-pitaka, rohiblik axloqi, xonaqohlar nizomlariga bag'ishlangan vinaya matnlari Vinaya-pitaka, buddizmning falsafiy va psixologik muammolarini bayon kilib berishga bag'ishlangan abxidxarma matnlari — Abxidxarma-pitaka iborat. Keyinchalik shakllangan sanskrit, Xitoy, Tibet, Kxmer va Yapon tillaridagi buddizmga oid adabiyotlar ancha keng tarkalgan, ammo ularning ilk buddizm tarixi uchun ahamiyati ozrok Budda hayotiga tegishli rivoyatlarning asosiysi Tripitakada jamlangan.[6]

XULOSA

Buddaviylik dini insoniyat tarixida muhim o'rin egallagan falsafiy-ta'limiy tizimlardan biridir. Uning asosida turmushning mohiyatini anglash, ruhiy poklanish, insonparvarlik, zo'ravonlikka qarshi turish kabi tamoyillar mujassamdir. Buddaviylikning to'rt oliy haqiqat va sakkiz pog'onali yo'l ta'limoti millionlab insonlar uchun ma'naviy mezon bo'lib kelgan. Bugungi kunda ham buddaviylik xalqaro miqyosda tinchlik, mehr-oqibat va umuminsoniy qadriyatlarni targ'ib etishda muhim omil hisoblanadi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Raxim XUDOYBERDIYEV Termiz arxeologiya muzeyi ilmiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari <https://stam.uz/yangiliklar/buddaviylik-talimotining-paydo-bolishi-va-tarqalishi/>
2. Rahmonov S. Dinshunoslik asoslari. – Toshkent: Fan, 2018.
3. Eliade M. A History of Religious Ideas. – Chicago: University of Chicago Press, 1982.
4. Harvey P. An Introduction to Buddhism. – Cambridge: Cambridge University Press, 2013.
5. Robinson R., Johnson W. The Buddhist Religion: A Historical Introduction. – Belmont, 2005.
6. Gethin R. The Foundations of Buddhism. – Oxford: Oxford University Press, 1998.